

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

Bundan keyin «**Buyurtmachi**» deb ataluvchi, Nizom asosida ish yurituvchi Buxoro viloyati, Peshku tuman xokimligi moliya bo'limi nomidan mudir U.Raxmatov va bundan keyin «**Ijrochi**» deb ataluvchi, Ustav asosida ish yurituvchi «**SUN-HIGHTECH**» Mas'uliyati Cheklangan Jamiyati (MCHJ) nomidan Bosh direktor E.T.Abdullayev (bundan keyin birgalikda «**Tomonlar**» deb ataladi, va mazkur shartnomada ko'rsatilgan xar bir yuridik shahs «Tomon» deb ataladi) ushbu Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I.SHARTNOMA MAVZUSI

1.1 Ijrochi Buyurtmachining binosiga 10kVt quvvatga ega tarmoq quyosh elektr stansiyasini (bundan buyon matnda «**Tovar**» deb ataladi) ishlab chiqargan xolda **Buyurtmachi** hududiga o'rnatish, montaj qilish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni bajarish majburiyatini oladi. **Buyurtmachining** binosini quyidagi manzilda joylashgan – Buxoro viloyati, Peshku tuman, Yangibozor MFY, Amir Temur ko'chasi, 4-uyda.

Mazkur shartnoma Peshku tuman xokimligi moliya bo'limi tomonidan **Tovarni** xarid qilish bo'yicha 2022-yil 20-dekabrda 209070-sonli eng yaxshi oferta lotini tanlash bo'yicha xarid qilish komissiyasining bayonnomasi asosida tuzildi.

1.2 Ijrochi ushbu Shartnomani tuzish vaqtida **Tomonlar** tomonidan kelishilgan va imzolangan (Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilova) muvofiq **Tovarni** ishlab chiqarish majburiyatini oladi. **Buyurtmachi** tomonidan Texnik topshiriqlarga har qanday o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, ushbu o'zgarishlar ushbu Shartnomaga yozma qo'shimcha kelishuv asosida **Ijrochi** bilan kelishilganidan keyin yakuniy o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

II. TOVARNING NARXI VA TO'LOV TARTIBI

2.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha **Tovarning** narxi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bilan birga 110 000 000 (bir yuz o'n million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov **Buyurtmachi** tomonidan **Ijrochi** hisob raqamiga pul mablag'larini quyidagi tartibda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi:

2.2.1. Tomonlar tomonidan ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida **Tovar** qiymatining 30 foizi miqdorida oldindan to'lov;

2.2.2. Tovar qiymatining qolgan 70 foizi **Tovar Buyurtmachi** manziliga yetkazib, o'rnatib, ishga tushirib berilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda **Buyurtmachi** tomonidan qabul qilib olingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida amalga oshiriladi.

III. TOVARNI ISHLAB CHIQARISH, YETKAZIB BERISH, O'RNATISH, MONTAJ QILISH VA ISHGA TUSHIRISH SHARTLARI

3.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha **Ijrochi** tomonidan **Buyurtmachiga Tovarni** o'rnatish, montaj qilish va ishga tushirish shartlarining bajarilishi to'lov amalga

oshirilgan paytdan boshlab 90 (to'kson) ish kun etib belgilanadi. Shunda **Ijrochi** tomonidan ishlar bajarilganda, obi-havo bo'zilishi xolatlari mavjud bo'lsa, ya'ni yomg'ir va qor yog'sa, va (yoki) mamakaldrok va tuman mavjud bo'lganida, hamda kuchli shamol essa, unda ishlar to'htatiladi. Ish jarayoni to'xtatishga **Ijrochi** majburligi sababi, ishchilar balandlikda ochiq ob-havoda tarmoq quyosh fotoelektr stansiyalarni o'rnatadi va ushbu stansiya elektr ishlab chiqaradi, va shunda obi-havo bo'zilishi xolatlari mavjud bo'lganda elektr tok ularni sog'lig'iga katta zarar yetqazishi mumkin. Shu sababdan ishlarni mehnat muhofazasi bo'yicha huqumatimiz va vakolatga ega bo'lgan Davlat organlari ko'pgina normativ-meyoriy hujjatlar qabul qilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" qonuni, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan 2008-yil 17-dekabrda 75-sonli buyrug'i bilan tasdiqangan "Balandlikda ishlaganda mehnatni muhofaza qilish qoidolari" va boshqalar.

3.2. Ijrochi Tovarni Buyurtmachiga muddatidan avval yetkazib berish huquqiga ega.

3.3. Ijrochi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z Shartnoma majburiyatlarini **Buyurtmachi** 5 (besh) bank kuni ichida **Ijrochining** hisob raqamiga oldindan to'lov qilingan kundan boshlab bajarishga kirishadi.

IV. SHARTNOMA BO'YICHA TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha **Tomonlar** quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu tuzilgan Shartnomani tuzish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

- huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vositalar va usullarni qo'llash;

4.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha **Tomonlar** quyidagilarga majburdirlar:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya qilish;

- tuzilgan ushbu Shartnoma talablariga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarish.

4.3. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

- ushbu Shartnoma bo'yicha yetkazib berilgan **Tovar** uchun o'z vaqtida dastlabki va yakuniy to'lovni amalga oshirish;

- **Tovarni** o'rnatish tugallanganligi to'g'risida bildirishnoma olgandan so'ng, ikki kun ichida **Tovarni** o'rnatish bo'yicha ish hajmini ko'rib chiqish va qabul qilish va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, bu haqda **Ijrochiga** ma'lum qilish.

4.4. Ijrochi quyidagilarga majbur:

- Ushbu shartnomada belgilangan tartibda **Tovarni** yetkazib berish;

- **Buyurtmachi** vakili ishtirokida ushbu Shartnoma bo'yicha **Tovarni** ishga tushirishni amalga oshirish va **Tovarni** o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishda **Buyurtmachining** yozma va (yoki) og'zaki tavsiyalariga rioya qilish;

- texnik topshiriqlardan chetga chiqishlarni **Buyurtmachi** bilan kelishish;

- ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda **Tovarni Buyurtmachiga** topshirish;

- ushbu Shartnomada ko'rsatilgan **Tovarni** o'rnatish bo'yicha texnik topshiriq va ish hajmini **Buyurtmachining** rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik.

V. TOVARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha **Tovarni** topshirish Buyurtmachining vakolatli vakili tomonidan imzolangan **Tovarni** ikki tomonlama topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng yakuniy topshirilgan hisoblanadi.

5.2. Buyurtmachi Tovarni topshirish to'g'risidagi bildirishnomani olgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida:

- yoki **Tovarni** qabul qilishi va **Tovarni** topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashi;

- yoki **Tovarni** qabul qilishdan bosh tortishi va **Ijrochiga** asoslantirilgan rad javobini yuborishi kerak.

5.3. Asosli raddiya bo'lgan taqdirda, tuzatishlar ro'yxati va aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari ko'rsatilgan ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

VI. DA'VOLARNI TAQDIM ETISH VA KO'RIB CHIQISH TARTIBI

6.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan **Tomon** boshqa **Tomonga** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda da'volar qo'yish huquqiga ega.

6.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha da'vo arizasi berilgan **Tomon** da'vo olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida ushbu da'voga yozma javob berishga majburdir.

6.3. Belgilangan muddatlarda da'vo arizasi rad etilgan (qisman rad etilgan) yoki javob ololmagan **Tomon**, tegishli sud qarorini olish uchun Toshkent shahar iqtisodiy sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

VII. SHARTNOMA BO'YICHA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

7.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun **Ijrochi** va **Buyurtmachi** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Tovarni topshirish muddatlari o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda, **Ijrochi** **Buyurtmachiga** kechiktirilgan har bir kun uchun **Tovar** qiymatining 0,05% miqdorida, lekin **Tovar** qiymatining 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

7.3. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda to'lovni o'z vaqtida to'lamaganlik va (yoki) kechiktirganlik uchun **Buyurtmachi Ijrochiga** kechiktirilgan har bir kun uchun 0,04% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

VIII. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun, agar ularni bajarishning iloji yo'qligi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir qiluvchi tabiiy ofatlar yoki harbiy harakatlar, shuningdek, davlat organlari tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi qonun hujjatlarini qabul qilish va (yoki) o'zgartirish kabi fors-major holatlari natijasida yuz bergan bo'lsa, javobgar bo'lmaydilar.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

9.1. Mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, ularning xodimlari yoki vositachilari har qanday shaxsga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul yoki qimmatbaho narsalarni to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi yoki to'lashga ruxsat bermaydi. Har qanday shaxslarning qarorlari o'zgartirishlari uchun yoki nomaqbul ustunlikka erishish yoki boshqa nomuvofiq maqsadlarga erishishga yo'l qo'ymaydi.

9.2. Tomonlar, ularning xodimlari yoki vositachilari ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda amaldagi qonunchilikda pora berish(olish), shuningdek amaldagi qonun hujjatlarini yoki korrupsiyaga qarshi xalqaro aktlar talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Agar tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo'ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

9.4. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

X. YAKUNIY SHARTLAR

10.1. Ushbu Shartnoma ushbu Shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq va (yoki) **Tomonlar** tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va **Tomonlar** o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

10.2. Ushbu Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Tomonlarning hech biri boshqa **Tomon** ning yozma roziligisiz Shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini uchinchi tomonga o'tkazishga haqli emas.

10.4. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa ham bir xil va bir xil yuridik kuchga ega. **Tomonlarning** har biri ushbu Shartnomaning bitta nusxasiga ega.

10.5. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.6. Mazkur shartnoma imzolangandan kundan to 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi. Lekin mazkur shartnomaning 3.1. bandida ko'rsatilgan xolatlar mavjud bo'lganda ushbu shartnoma muddati, qonunchilikda belgilangan tartibda, o'zaytirilishi mumkin.

XI. MANZILLAR VA BANK REKVIZITLARI

"BUYURTMACHI"

Buxoro viloyati, Peshku tuman

xokimligi moliya bo'limi

Manzil: Buxoro viloyati, Peshku
tuman, Yangibozor MFY, Amir Temur
ko'chasi, 4- uy.

Tel: (8365) 353-14-31

"IJROCHI"

"SUN-HIGHTECH" MCHJ

Manzil: Toshkent sh., Yunusobod
tumani, Bog'ishamol ko'chasi 160 uy,
Yunusobod kichik sanoat zonasi.

Sh.H:100022860062407011312092004

STIR: 200 883 559, O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi

X/R: 2340 2000 3001 0000 1010

STIR: 201 122 919, HKKM MB Toshkent
shahri, MMT: 00014, KTUT: 05585755



Mudir

U.Raxmatov

Tel: (94) 777-78-88

h /r: 2020 8000 2052 0055 3001

"O'ZSANOATKURILISHBANK" ATB

BOSH OFISI, MMT: 00440

STIR 307 258 109, IFUT 27900

Bosh direktor

E.Abdullayev



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	Умурбек Раҳматов Усмонович
	Imzolangan sana	23.12.2022 10:26
	Hujjat kodi	ZF3671362614
	Hulosa kodi	FU1251734471

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

FU1251734471

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **PESHKU TUMAN MOLIYA BO'LIMI** va "SUN-HIGHTECH" Mas'uliyati Cheklangan Jamiyati o'rtasida mahsulot etkazib berish shartnomasi. (Moliya bo'limi binosiga 10kVt quvvatga ega tarmoq quyosh elektr stansiyasini yetkazib o'rnatish)
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: PESHKU TUMAN MOLIYA BO'LIMI tomonidan 23.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Peshku tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



A.B.Boboyev
23.12.2022